

TILSHUNOSLIKDA “REALIYA” TUSHUNCHASI VA UNING
QO’LLANILISHI.

Z.B.Djalilova

BuxDU, Ingliz tilshunosligi kafedrasida katta o'qituvchisi, f.f.f.d.(PhD);

N.O.Yuldashova

BuxDU, Lingvistika: ingliz tili mutaxassisligi I-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi realiya tushunchasi, uning kelib chiqishi va xalq madaniy me'rosida tutgan o'rnini, uning qay darajada o'rganilganligi haqida ma'lumot keltirilgan. Shuningdek, realiyaning tilshunoslikdagi ma'nosi tahlil qilingan bo'lib unga doir namunalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: realiya, lug'at, lingvokulturologiya, atama, leksik ma'no, madaniyat.

Annotation: This thesis reveals information about the concept of realia, its origin and role in the cultural norm of the people, as well as, studies done in the area. In addition, the meaning of the realia is analyzed; examples of expressions are presented.

Keywords: realia, vocabulary, lingu-culture, lexical meaning, terms, culture.

Realia tilshunoslikda alohida bir atama bo'lib, u tillararo va madaniyatlararo munosabatlarni, hamda ular o'rtasidagi farqlarni o'rganish bilan shug'ullanadi. Realialar tilshunoslik sohasi taraqqiyotining keyingi davrlarida shakllangan tushunchalar bo'lib, tillararo hamda madaniyatlararo farqlarni o'rganishda muhim o'rin kasb etadi. Realialarning yondosh tushunchalardan farqlab turuvchi asosiy belgisi bu ularning predmet-narsa ma'nosiga ega bo'lganligidir.¹

“Realia” so'zining kelib chiqishi ham lotincha “moddiy, ash-yoviy, haqiqiy” degan tushunchalarga to'g'ri keladi. Realia tilshunoslikda muayyan mamlakatning madaniyati va aynan shu tilda so'zlashuvchilarning til va aloqalari hamda boshqa turli xil omillar hamda madaniyat predmetlari sifatida izohlangan. “Realia bu- so'zning nominativ ma'nosi uchun asos bo'lib xizmat qiluvchi, mavjud madaniyat predmetlari”, -deb ta'riflaydi D.E.Rozendal.² Darhaqiqat, har bir tilning mavjud realialari uning madaniyati haqidagi qimmatbaho manbadir. L.N.Sobolev ta'kidlashicha, insonlar kundalik turmush tarzida bir-biri bilan kamdan-kam hollarda badiiy tilda suhbat quradi va ushbu holatda ekvevalentlariga ega bo'lmagan maishiy va o'ziga xos milliy so'zlar va iboralar, shuningdek, boshqa tillarda mavjud bo'lmagan milliy turmush tarziga oid birliklar yordamga keladi. Bunday so'z va so'z birliklari, “realia” hisoblanadi, negaki ushbu predmet va hodisalar boshqa mamlakatlarda mavjud bo'lmaydi.³

Realialar asosiy xususiyati bu ular ifodalaydigan predmetning ko'rinishidan, mazmun-mohiyatidan, muhimligidan kelib chiqadi. Ular haqida gapirganda albatta, milliylik, o'ziga xoslik va ayniqsa tarixiylik masalalarini chetlab o'tib bo'lmaydi. Realialar har qanday davrda va makonda ham milliy xususiyatga va tarixiy bo'yoqqa ega bo'ladilar. leksik ma'nolari yig'indisidan kelib chiqmaydi,

¹ Вайсбурд Е.М., Реалия как элемент страноведения. – Москва 1972 С.48

² Маслов Ю.С. Введение в языкознание. – Москва 1987 С.224

u umumiylik xususiyatiga ega. Realialarni qadriyatlar ifodasi, milliy va madaniy muhit belgisi sifatida badiiy matnda alohida ma'no bag'ishlaydi. Ularning tarjimasini tilshunoslardan hamda tarjimashunoslardan til bilimidan tashqari madaniy va milliy qadriyatlar, belgilar haqidagi ma'lumotlarga ega bo'lishni ham talab qiladi.⁴

Ingliz va o'zbek tillarining madaniyat olamida, tasvirida har ikkala til realialari ham ushbu millatlarning o'tmishi, madaniyati, millatga xos bo'lgan milliy-madaniy xususiyati, an'analari, hayot tarzini aks ettiradi. Har ikkala tilda ham realialarning aksariyati insonning ichki va tashqi olami bilan bog'liq faoliyati orqali shakllanadi. Shu sababdan ham bunday realialar ifodalagan ma'noning zahirida inson va uning fe'l-atvori, yashash tarzi, o'y-fikrlari yotadi. Millatning turmush tarziga va madaniyatiga aylangan oddiy ish harakatlari, marosimlar bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar keyinchalik realialarga aylanishi mumkin va u o'zida to'raligicha shu millatning milliy madaniyati va turmush tarzini ifoda etadi. Masalan, o'zbek xalqiga mansub uning milliy taomlari nomlari ham realiyaga kira oladi. Milliy taom hisoblangan palov, norin, atala, bahorning taniq taomi sumalak va halim, manti, chuchvara, mastava kabilar bunga misol bo'la oladi. O'zbek millatiga xos bo'lgan realialar ushbu xalqning kundalik turmush tarzi bilan bog'liq. Bundan tashqari milliylik ufarib turgan milliy an'analar va qadriyatlar aks etgan o'zbek liboslarini ham realialarga misol qila olamiz. Ulardan atlas, adras, chopon, zar choponlar, do'ppi kabilar ham milliylik namunalaridandir. Bular asrlar davomida o'zbek xalqiga xos bo'lgan takomillashib borayotgan realialar sirasiga kiradi.⁵

O'zbek xalqiga tegishli bo'lgan milliy so'zlar- realialar, ularning asl ma'nosi, fanda o'rganilishi, realialar orqali milliylikni ifodalash va o'zbek xalqi tomonidan eng ko'p ishlatiladigan milliy realialar haqida so'z borganda milliy taomlar, kiyim-kechaklar, cholg'u asboblari, ro'zg'or anjomlari, geografik nomlari, tabiat manzaralari, o'zbek xalqi marosimlari, hamda etnografik belgilarni bildiruvchi realialarni ham misollar orqali yoritib berilishi bu o'quvchi va o'rganuvchilarga tilshunoslik nuqtai nazaridan tushunarli bo'la oladi. Realialarni nafaqat tilshunoslikda balki badiiy adabiyotlarda, badiiy asarlarda ham kuzatish mumkin. Bunday realialarni biz asar qahramonlari xulq-atvorida, so'zlashish nutqida uchratishimiz mumkin. Bunday realialar badiiy adabiyotda asarning badiiy estetik ta'sirini oshiradi.⁶

Shuni aytib o'tish joizki, har bir xalqning madaniyatini, turmush tarzi va an'alarini undagi mavjud bo'lgan realialarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bunday realialar albatta tilda namoyon bo'ladi hamda o'z ifodasini topadi. Ularni keying avlodga yetkazib berish esa albatta tilshunoslar hamda tarjimashonalar oldidagi ulkan vazifa hisoblanadi. Realialarni tarjima qilishda tarjimon o'z mahoratini ko'rsatib, barcha usullarni qo'llab ko'rishi va eng munosib yo'l orqali amalga oshirishi lozim.

³ Верещагин В.П., Костоморов В.Г. Язык и культура – Москва 1983 С.35

⁴ Сапагова Л.И. О понятие реалія. Сб. –М.,1990.: ФН, 1958. С. 50-54

⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati (2006). 1-jild. – Toshkent.

⁶ <https://audiobook.uz/blogs/news/realia-va-ularga-misollar>.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bakhodirovna, D. Z. (2021). Description of Human Features and Feelings through Flora in English Poetry. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 2(10), 6-9. <https://cajipc.centralasianstudies.org/index.php/CAJLPC/article/view/209>
2. Djalilova, Z. B. (2020). FLORA IN EDMUND SPENSER'S POETRY. *Theoretical & Applied Science*, (4), 371-375. https://www.elibrary.ru/page_404.asp?qx=https%3A%2F%2Fwww%2Eelibrary%2Eru%2Fitem%2Easp%3Fid%3D42831520.
3. Kodirova Kholida Khayriddin kizi. (2022). The Analysis of Illocutionary Acts in Adventures of Tom Sawyer by Mark Twain. *Miasto Przyszłości*, 28, 324–328. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/648>
4. Nargiza Bobojonova Jumaniyozovna. (2022). The Term Concept in Modern Linguistics. *Miasto Przyszłości*, 28, 297–302. <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/643>
5. O'zbek tilining izohli lug'ati (2006). 1-jild. – Toshkent.
6. Ubaydullayeva Muattar O'rinbekovna. (2022). Ingliz tilida frazeologik birliklarning ma'no munosabatlari: ko'p ma'nolilik va omonimiya. *Integration Conference on Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes*, 300–304. Retrieved from <https://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/116>
7. Zarnigor, D. (2021). Phytonymic comparison as a means to create image in poetry. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(9), 693-698. <https://www.indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:aca&volume=11&issue=9&article=118>.
8. Toshnazarovna, E. M. (2022). ALLUSIONS TO HISTORICAL CHARACTERS AND EVENTS IN THE NOVEL BELLEFLEUR BY JOYCE CAROL OATES. *Барқарорлик ва Етакчи Тадқиқотлар онлайн илмий журнали*, 2(1), 274-277. <http://sciencebox.uz/index.php/jars/article/view/861>
9. Saidova, M. U. (2020). LEXICOGRAPHIC AND ETYMOLOGICAL ANALYSIS OF THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERARY TERMS BY. <https://namdu.researchcommons.org/cgi/viewcontent.cgi?article=2723&context=journal>
10. Саидова, М. (2021). THE CONCISE OXFORD DICTIONARY OF LITERARY TERMS. ЛУЕАТИДАГИ ДРАМА АДАБИЙ ТУРИГА ХОС ТЕРМИНЛАРИНИНГ МАЗМУНИЙ ТАДЛИЛИ//ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 8(8). https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4453
11. Umedilloevna, S. M. (2019). Lexical stylistic devices and literary terms of figurative language. *International Journal of Recent Technology and Engineering*, 8(3 Special Issue), 231-233. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=41817547>
12. Saidova, M. U. (2019). THE STRUCTURAL COMPOSITION OF THE LITERARY TERMS IN LITERARY DICTIONARY" LITERARY TERMS AND LITERARY THEORY" BY JA CUDDON.

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION
STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

Международный академический
<https://www.elibrary.ru/item.asp?id=36875142>

вестник,

(1),

73-76.